

**QUR'ON TILOVATIDA INSON OVOZINING SIFATARI OYATLAR
KO'LAMIDA**

Rahmatov Iqboljon Izzatullo o'gli

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

“Islomshunoslik va islom sevilizatsiyasini

o'rganish ICESCO kafedrasini” tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qur'on tilovatida inson ovoz sifati va ohangi haqida hadislar uchraydigan fikrlar tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Qur'on, qiroat, ovoz, ohang, nay.

Baqara surasi 171-oyat

(وَمَثَلُ الَّذِينَ كَفَرُوا كَمَثَلِ الَّذِي يَنْعِقُ بِمَا لَا يَسْمَعُ إِلَّا دُعَاءً وَنِدَاءً صُمُّكُمْ عُمِّي فَهُمْ لَا يَعْقِلُونَ)

171. (Haqiqatan ham) kufr yo'lidagi kimsalar (vahiydan ta'sirlanmaslikda) xuddi hayvonlarga qichqirayotgan kishining ovozidan va hayqirig'idan o'zga narsani eshitmayotgani kabidir. (Ular) kar, soqov va ko'rdirlarki, (gapni) anglamaydilar.

Izoh: Hayvonlarga har qancha gapirilsa ham faqat ovozdan boshqa narsani anglamaganlari kabi betavfiq kishilar ham foydali gaplarni tinglab, anglash o'rniga nochorlikdan eshitib qo'ya qoladilar.

Ushbu tarjima va izohlar qismida ham Qur'ondagi so'zlarni eshitish va tinglash odobi so'zlarning istilohida aql – idrokning, tafakkurning farqi borligini hamda adashgan kimsalar uchun go'yoki inson Qur'on tilovat qilganda ovozi anglab bo'lmas qichqiriqqa o'xshab tuyilishini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni ob'ektiv yuksak tafakkur bilan, diqqat bilan tahlil etish natijada tinglashga aylanadi va ular bir biridan farq qiladigan darajada namoyon bo'ladi.

Anfol surasi 55 oyatida:

(ادْعُوا رَبَّكُمْ تَضَرُّعًا وَخُفْيَةً إِنَّهُ لَا يُحِبُّ الْمُعْتَدِينَ)

55. Rabbingizga zorlanib va xufyona (ovoqsiz) duo qilingiz! Zero, U

haddan oshuvchilarni yoqtirmaydi.

Izoh: bu oyat tarjimasida ham inson ovozing jarangsiz holda ishlatilishi, yoki haddan ortiq unga zo'r bermasligi, kuchli ehtirosga berilib, nazorat yo'qotilishi, hushu va tadaburning yo'qolishi va natijada ibodat mobaynida Qur'on tilovat qilinsa undagi harflariga, tajvid qoidalari va boshqa ovoz masalalari sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishining oldini olish uchun ham eslatma tarzida qanday tartiba ibodat qilinishi haqida ko'rishimiz mumkin. Ibodat asnosida ham ovozning malum bir qoidalar asosida ishlatilishi har tomonlama muhimligini tushunishimiz mumkin.

A'rof surasining 205 - oyatida ham ovozni mo'tadil ishlatishlikka, uni qalbdan qo'rqish hissi bilan, zorlanish holatida, barcha ibodatlar chin ixlos bilan qilingan tazarruda ham aql va qalb hamda ruxiyatning uyg'unlini his etib ibodat qilishga ko'rsatma beriladi va bu vaziyatda ham inson ovozing turli xil vaziyatlarga qarab uning mohiyati namoyon bo'lishini ko'rishimiz mumkin.

{ وَأَذْكُرْ رَبَّكَ فِي نَفْسِكَ تَضَرُّعًا وَخِيفَةً وَدُونَ الْجَهْرِ مِنَ الْقَوْلِ بِالْغُدُوِّ وَالْآصَالِ وَلَا تَكُنْ مِنَ الْغَافِلِينَ }

205. Rabbingizni ichingizda tazarru va qo'rqinch bilan hamda gapirganda ovozni ko'tarmasdan ertayu kech zikr (yod) eting! G'ofillardan bo'lmang!

Isro surasining 110 – oyatida hususan tilovat vaqtida ovoz ishlatishning o'rta holati, uni mo'tadil holda haddan ortiq maxfiy yoki uning aksi bo'lishidan qaytariladi. Ovoz ilmiga ko'ra ovozning bu turda ishlatilishi kata maxorat talab etiladi.

{ قُلْ أَدْعُوا اللَّهَ أَوْ ادْعُوا الرَّحْمَنَ أَيًّا مَا تَدْعُوا فَلَهُ الْأَسْمَاءُ الْحُسْنَىٰ وَلَا تَجْهَرُوا بِصَلَاتِكُمْ وَلَا تَخَافُتُمْ بِهَا وَابْتَغِ بَيْنَ ذَلِكَ سَبِيلًا }

110. (Ey, Muhammad,) ayting: "Alloh, deb chorlangiz yoki Rahmon deb chorlangiz. Qanday chorlasangizlar-da (joizdir). Zero, Uning go'zal ismlari bordir". (Ey, Muhammad,) Siz namozingizni juda jahriy (baland ovozda, oshkora)ham qilib yubormang (toki mushriklar eshitib, Qur'onni haqorat qilmasinlar) va o'ta maxfiy ham qilib yubormang (toki sahobalaringiz tinglab, foydalansinlar). Shularning (jahriylik bilan maxfiylik) o'rtasidagi yo'lni istang!

Luqmon surasi 19 – oyatda deyiladi-ki:

{ وَأَقْصِدْ فِي مَشْيِكَ وَأَعْضُضْ مِنْ صَوْتِكَ إِنَّ أَنْكَرَ الْأَصْوَاتِ لَصَوْتُ الْحَمِيرِ }

19. “Yurishinga mo’tadil bo’l va ovozingni pasaytir. Chunki ovozlarning eng yomoni eshakning ovozidir. ¹

Ush bu tafsirda ham ovozni motadil holatda ishlatishga buyurilganini, hamda ovozning qo‘polligi, uning yoqimsiz kuchliligi ham kuchli zarbulmasal sifatida eshakning ovozigga qiyoslanganini ko‘rishimiz mumkim.

Sabo surasi 10 – oyatida Dovud a.sga juda nafis, insonlaru bashqa mavjudodlarni ham o‘ziga rom etuvchi ovoz berilganligi, uning ohangidan butun borliq unga qoshilib ibodat qilishi bayon etiladi.

{ ﴿لَقَدْ آتَيْنَا دَاوُدَ مِنَّا فَضْلًا يَا جِبَالُ أَوِّبِي مَعَهُ وَالطَّيْرُ وَالنَّارُ لَهُ الْحَدِيدُ ﴾ }

10. Biz Dovudga (ulug') fazl (martaba) ato etdik: "Ey, tog'lar va qushlar! (Dovud) bilan birga tasbeh aytinglar!" Va uning uchun temirni (xamirdek) muloyim qilib qo'ydik.

Izoh: Demak, Dovud (a. s.)ga Alloh taolo payg'ambarlikdan tashqari yana xush ovoz va temirchilik ne'matlarini ato etganki, Zabur kitobini tilovat qilganlarida qush-tuyurlar ham maftun bo'lib, unga jo'r bo'lar, atrofdagi tog'u toshlar ham aks sado berib tilovatga qo'shilishar, tasbehni birga aytishar ekan. Ikkinchi ne'mat temirchilikda ham mislsiz imtiyozli bo'lganlaridan qo'llaridagi temir xamirdek erib, undan xohlagan asbobni yasay olar ekanlar.

Hujjirot surasi 2- va 3-oyatlarida ham mo’tadil ovoz ishlashi, uning manfaati ko‘pligi va uni ko‘tarish bilan amallar yuvilib ketishi bilan birga, uning ulkan foydalari borligi aytiladi:

{ يَا أَيُّهَا الَّذِينَ ءَامَنُوا لَا تَرْفَعُوا أَصْوَاتَكُمْ فَوْقَ صَوْتِ النَّبِيِّ وَلَا تَجْهَرُوا لَهُ بِالْقَوْلِ كَجَهْرِ بَعْضِكُمْ لِبَعْضٍ أَن تَحْبَطَ أَعْمَالُكُمْ وَأَنتُمْ لَا تَشْعُرُونَ }

{ إِنَّ الَّذِينَ يُعْضُونَ أَصْوَاتَهُمْ عِنْدَ رَسُولِ اللَّهِ أُولَئِكَ الَّذِينَ امْتَحَنَ اللَّهُ قُلُوبَهُمْ لِلتَّقْوَى لَهُمْ مَغْفِرَةٌ □ وَأَجْرٌ عَظِيمٌ }

2. Ey, imon keltirganlar, amallaringiz o'z'laringiz sezmagan holingizda zoye bo'lib ketmasligi uchun sizlar ovozlaringizni Payg'ambarning ovozidan yuqori

¹ Shayx Muhamma Sodiq Muhamma Yusuf. Tafsiri hilol.
www.tadqiqotlar.uz

ko'tarmanglar va unga bir-birlaringizga baland ovoz (dag'al so'z) qilgandek baland ovoz qilmangizlar!

3. Allohning Payg'ambari huzurida ovozlarini past qilgan zotlar - aynan o'shalar Alloh dillarini taqvo uchun imtihon qilgan zotlardir. Ular uchun mag'firat va ulkan mukofot bordir.

Muhammad surasi 30 – oyatida paygambar Muhammad (a.s) ga Allo tomonidan munofiqlarning gap ohanglari orali ularni tanitib qo'yilishi ya'ni gapda ham inson turli xil psixologik asir qiluvchi ohanglardan beixtiyor foydalanishi haqida fikr namoyon bo'ladi.

{ وَلَوْ نَشَاءُ لَأَرَيْنَاكُمْ فَلَعَرَفْتَهُمْ بِسِيمَاهُمْ وَلَتَعْرِفَنَّهُمْ فِي لَحْنِ الْقَوْلِ وَاللَّهُ يَعْلَمُ أَعْمَالَكُمْ }

30. (Ey, Muhammad,) agar xohlasak, albatta, Sizga ularni (munofiqlarni) ko'rsatib (tanitib) qo'ygan bo'lur edik, u holda Siz ularni belgilaridan tanib olgan bo'lur edingiz. (Qasamki, endi) albatta, Siz ularni so'z ohangi (uslubidan) tanib olursiz. Alloh (barcha) amallaringizni bilib turur.

Izoh: 30-31-oyat. Musulmonlar ichida dilida imon keltirmagan munofiqlar ham bor edi. Ularni turli sinovlar orqali Rasul (a. s.)ga tanitib qo'yish uchun Alloh taolo mazkur oyatlarni nozil etgan.

Inson ruxiyati uning maqsadi, xohishi uning ovoz ohanglaridan suhbatdoshiga ayon bo'ladi. Tilovatda ham tinglovchini hidoyatga chorlash, uning qalbida imonini yuksalishida inson ta'sirli ohangda o'qishi mazkur oyatdagi ohang sezish hissiga ko'ra amaliy misol bo'la oladi.

Baqara surasi 121 – oyatda:

{ الَّذِينَ ءَاتَيْنَاهُمُ الْكِتَابَ يَتْلُونَهُ حَقَّ تِلَاوَتِهِ أُوْلَئِكَ يُؤْمِنُونَ بِهِ وَمَنْ يَكْفُرْ بِهِ فَأُوْلَئِكَ هُمُ الْخٰسِرُونَ }

121. Biz kitob (Tavrot, Injil yoki Qur'on) bergan kishilar (mo'minlar)uni to'g'ri (buzmay) tilovat qiladilar. Ular unga (Muhammadga va Kitobga) imon keltiradilar. Kim uni inkor etsa, ana o'shalar ziyon ko'ruvchilardir.

Anfol surasi 2 – oyatda: ibodat mobaynida qur'on tilovati qilinsa tinglovchi ham qo'rquv hissini tuyishi va uning ta'siri tufayli yanada imoni yuksalishiga sabab bo'ladigan vositalar ichida inson ovoz omili borligini ko'rishimiz mumkin. Bu o'rinda ovozni tajvid qoidalariga to'la bo'y sundurib vokal exnikasi yordamida turli

omillardan masalan maqom ilmi, musiqa ilmi, ovoz ilmidan oqilona foydalanib ko'zlangan maqsadga erishish mumkin.

{ إِنَّمَا الْمُؤْمِنُونَ الَّذِينَ إِذَا ذُكِرَ اللَّهُ وَجِلَّتْ قُلُوبُهُمْ وَإِذَا تُلِيَتْ عَلَيْهِمْ آيَاتُهُ زَادَتْهُمْ إِيمَانًا وَعَلَىٰ رَبِّهِمْ يَتَوَكَّلُونَ }

Mo'minlar - Alloh (nomi) zikr etilganda - dillari qo'rquvda bo'ladigan, oyatlari ularga tilovat qilinganda - imonlari ziyoda bo'ladigan, Parvardigorlarigagina tavakkul qiladigan

Qur'onni tartil bilan (dona-dona qilib) tilovat qiling!

Ushbu oyatdagi "tartil" kalimasi Qur'onni tajvid qoidalariga muvoffiq o'qilishi borasida to'rtta mazhab ulamolari tomonidan ixtilofsiz qabul qilinadi. Bu o'rinda harf sifatleri, harakat va madlar, vaqf o'rinlari kabi qoidalar o'z me'yorida bo'lishi nazara tutiladi.

{ إِنَّ نَاشِئَةَ اللَّيْلِ هِيَ أَشَدُّ وَطْئًا وَأَقْوَمُ قِيْلًا }

6. Albatta, kechasi (ibodat uchun bedor bo'lib) turish faoliyat jihatidan og'irroqdir, (lekin) so'z (so'zlash, qiroat qilish) jihatidan to'g'ri keladiganroqdir.

{ قُلْ أَدْعُوا اللَّهَ أَوْ ادْعُوا الرَّحْمَنَ أَيًّا مَا تَدْعُوا فَلَهُ الْأَسْمَاءُ الْحُسْنَىٰ وَلَا تَجْهَرُوا بِصَلَاتِكُمْ وَلَا تَخَافَتْ بِهَا وَأَتَّبِعْ بَيْنَ ذَلِكَ سَبِيلًا }

110. (Ey, Muhammad,) ayting: "Alloh, deb chorlangiz yoki Rahmon deb chorlangiz. Qanday chorlasangizlar-da (joizdir). Zero, Uning go'zal ismlari bordir". (Ey, Muhammad,) Siz namozingizni juda jahriy (baland ovozda, oshkora)ham qilib yubormang (toki mushriklar eshitib, Qur'onni haqorat qilmasinlar) va o'ta maxfiy ham qilib yubormang (toki sahobalaringiz tinglab, foydalansinlar). Shularning (jahriylik bilan maxfiylik) o'rtasidagi yo'lni istang!

Ovoz ishlashida hamisha mo'tadillik tutilsa tilovat mobaynida ovoz tajvid sifatlarini yaxshi ijro ea olishiga imkon yaratiladi.

Luqmon surasi 19 – oyatida:

{ وَأَقْصِدْ فِي مَشْيِكَ وَأَعْضُضْ مِنْ صَوْتِكَ إِنَّ أَنْكَرَ الْأَصْوَاتِ لَصَوْتُ الْحَمِيرِ }

19. (Yurganingda) o'rta hol yurgin va ovozingni past qilgin. Chunki,

ovozlarning eng yoqimsizi eshaklar ovozidir".

Ush bu oyatda ham ovozni meyorida bo'lishi hadan ortiq ko'tarilishi hunuk bo'lishi haqida bayon etiladi.

Sabo surasi 10 – oyada:

{ ﴿لَقَدْ آتَيْنَا دَاوُدَ مِنَّا فَضْلًا ۖ يَجِبَالٌ أَوْبَىٰ مَعَهُ وَالطَّيْرُ وَأَنَّا لَهُ الْحَدِيدُ﴾ }

10. Biz Dovudga (ulug') fazl (martaba) ato etdik: "Ey, tog'lar va qushlar! (Dovud) bilan birga tasbeh aytinglar!" Va uning uchun temirni (xamirdek) muloyim qilib qo'ydik.

Izoh: Demak, Dovud (a. s.)ga Alloh taolo payg'ambarlikdan tashqari yana xush ovoz va temirchilik ne'matlarini ato etganki, Zabur kitobini tilovat qilganlarida qush-tuyurlar ham maftun bo'lib, unga jo'r bo'lar, atrofdagi tog'u toshlar ham aks sado berib tilovatga qo'shilishar, tasbehni birga aytishar ekan. Ikkinchi ne'mat temirchilikda ham mislsiz imtiyozli bo'lganlaridan qo'llaridagi temir xamirdek erib, undan xohlagan asbobni yasay olar ekanlar.

Ush bu oyata Dovud a.s ning turli sifatlarini maqtalganligi hamda ovozlari ham yuksak maqomda bo'lganliklaridan yaqqol misol bo'la oladi. Xalqimizda hususan islom olamida bu kabi sifatni nisbiy e'tirof etish Payg'ambar a.s dan ham kuzatilganini sahih hadislar yordamida bilib olishimiz mumkin bo'ladi.

Muhammad surasining 30 oyatida:

{ ﴿وَلَوْ نَشَاءُ لَأَرَيْنَاكُمْ فَلَعَرَفْتَهُمْ بِسِيمَاهُمْ ۖ وَلَتَعْرَفَنَّهُمْ فِي لَحْنِ الْقَوْلِ ۗ وَاللَّهُ يَعْلَمُ أَعْمَالَكُمْ﴾ }

30. (Ey, Muhammad,) agar xohlasak, albatta, Sizga ularni (munofiqarni) ko'rsatib (tanitib) qo'ygan bo'lur edik, u holda Siz ularni belgilaridan tanib olgan bo'lur edingiz. (Qasamki, endi) albatta, Siz ularni so'z ohangi (uslubidan) tanib olursiz. Alloh (barcha) amallaringizni bilib turur.

Izoh: 30-31-oyat. Musulmonlar ichida dilida imon keltirmagan munofiqar hambor edi. Ularni turli sinovlar orqali Rosul (a. s.)ga tanitib qo'yish uchun Alloh taolo mazkur oyatlarni nozil etgan.

Mazkur oyatda inson ovozi turli vaziyatlarda turli xil ishlashi, turli ranglarda namoyon bo'lishi, maqsadiga erishishida ovoz ohanglanishi haqida fikr namoyon bo'ladi.

Anfol surasi 2 – oyatida qayd etilishicha tilovat qilinganda tinglovchining ruxiyatida, vujudida qo‘rquv va imonlari ziyoda bo‘lishidek kuchli hissiy ta’sir ko‘rsatilishi aytiladi. Buning yuzaga chiqishida tilovat qiluvchida birqancha omillar bo‘lishi yuqoridagi fikrlarimizni quvvatlaydi. Zero tilovat jarayonida tilovat qiluvchidan ovoz sifati bir qancha ilmlarni mujassamlagan holda maxorat talab etadi.

{ إِنَّمَا الْمُؤْمِنُونَ الَّذِينَ إِذَا ذُكِرَ اللَّهُ وَجِلَّتْ قُلُوبُهُمْ وَإِذَا تُلِيَتْ عَلَيْهِمْ آيَاتُهُ زَادَتْهُمْ إِيمَانًا وَعَلَىٰ رَبِّهِمْ يَتَوَكَّلُونَ }
}

2. Mo'minlar - Alloh (nomi) zikr etilganda - dillari qo'rquvda bo'ladigan, oyatlari ularga tilovat qilinganda - imonlari ziyoda bo'ladigan, Parvardigorlarigagina tavakkul qiladigan...

{ أُولَٰئِكَ الَّذِينَ أَنْعَمَ اللَّهُ عَلَيْهِمْ مِنَ النَّبِيِّينَ مِن ذُرِّيَّةِ آدَمَ وَمِمَّنْ حَمَلْنَا مَعَ نُوحٍ ۖ وَمِن ذُرِّيَّةِ إِبْرَاهِيمَ وَإِسْرَائِيلَ ۚ وَمِمَّنْ هَدَيْنَا وَاجْتَبَيْنَا ۚ إِذَا تُتْلَىٰ عَلَيْهِمْ آيَاتُ الرَّحْمَٰنِ خَرُّوا سُجَّدًا وَبُكِيًّا ۗ }
}

58. Aynan o'shalar Odam zurriyotidan (Idris kabi), Biz Nuh bilan birga (kemada) ko'tarib (to'fon balosidan najot bergan) kishilardan (ya'ni, ularningfarzandlaridan), Ibrohim zurriyotidan (Ismoil, Ishoq, Ya'qub kabi), Isroil (Ya'qub zurriyotidan bo'lgan Muso, Horun, Zakariyo, Yahyo va Iso kabi) va Biz hidoyat qilgan va tanlab olgan kishilardan bo'lmish Alloh in'om etgan payg'ambarlardir. Ularga qachon Rahmon oyatlari tilovat qilinsa, sajda qilgan va yig'lagan hollarida yiqilurlar. (Sajda oyati.)

Ushbu oyat yaqinlashganida tilovat qiluvchi uni ovozlarida bildirishi ya'ni ovozini yuqoriddan pasroqqa tushurishi, ovozni piano – yarim ovoza ijro etilishini uddalay bilishi lozim.

Haj surasining 77 – oyati

{ يَا أَيُّهَا الَّذِينَ ءَامَنُوا ارْكَعُوا وَاسْجُدُوا وَاعْبُدُوا رَبَّكُمْ وَافْعَلُوا الْخَيْرَ لَعَلَّكُمْ تُفْلِحُونَ }
}

[Сура Аль-Хадж: 77]

77. (Ey, imon keltirganlar, ruku' qilingiz, sajda qilingiz va Rabbingizga ibodat qilib yaxshilik qilingiz - shoyadki, najot topsangiz.

Izoh: Bu oyatdagi sajda qilishga qaratilgan buyruq hanafiymazhabimiz bo'yicha namozdagi sajdadir, tilovat sajdasi emas. Zero, Islomning ilk davrida

musulmonlar ruku' va sajdasiz namoz o'qir edilar. "Ruku' va sajda qilingiz" degan iboradan "Namoz o'qingizlar" - degan buyruqni anglash ham mumkin

Muzzammil surasi 4 - oyatida

{... وَرَتِّلِ الْقُرْآنَ تَرْتِيلًا }

4. Yoxud unga (bir oz) ziyoda qiling (yarmidan ko'prog'ida uxlang) va Qur'onni tartil bilan (dona-dona qilib) tilovat qiling!

Tartil so'zi mohiyati harflarni haqqini ado etish

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shayx Abulaziz Mansur Qur'oni karim ma'nolari tarjimasi
2. Sheikh Muhammad Sadiq Muhammad Yusuf. Sciences Of The Qur'an. <<Hilal Edition>>
3. Rahmatullah Kori Obidov. Qur'an And Tafsir Sciences.
4. Jahongir Ubaidullah. Study Guide On The Science Of Recitation And Tajwid
5. Odina Khan Muhammad Sadiq. Detailed Review. Hilol Publishing Tashkent 2022